

Date: 5th November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING PROFILAKTIK HISOBDA TURGAN
SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI**

Muxammadov Avazbek Amrillo o'g'li

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiytasi 313-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbliji shundaki, profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish va ularning moddiy-texnik ta'minoti tushunchasi va asosiy xususiyatlari, ularning ta'minotini tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyoti tahlili, profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish va ularning moddiy-texnik ta'minotidagi muammo va kamchiliklar, ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar, profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish va ularning moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha ilg'or xorij davlatlarining tajribasi va milliy qonunchiligidan farqli hamda o'xshash tomonlari, shuningdek, mana shu jihatlardan foydalanib ushbu faoliyatni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritib o'tilgan.

Ilmiy maqolaning dolzarbliji: Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz riosa etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, elyurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. «Xalq davlat idoralari emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan g'oya faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbazarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu hujjatda qonuniylik ahvolini va Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha choratadbirlarning samaradorligini atroficha muhokama qilish uchun joylarda, birinchi navbatda kriminogen vaziyat nomaqbul bo'lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarini hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish masalalari belgilab berildi.

Date: 5th November-2024

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 5005-sonli farmonida esa ichki ishlar organlari faoliyatida mavjud muammo va kamchiliklar ko'rsatilib, ularni bartaraf etishning ustuvor vazifalari belgilab berildi. SHu bilan birga, Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanimayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermasligi ko'rsatib o'tildi.

Profilaktika inspektorining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishslash faoliyatini olib borishda ichki ishlar organlari profilaktik hisobda turuvchi shaxslarning axloqan tuzalishi va qayta huquqbazarlik sodir etishlarining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan profilaktika ishlarni tashkil etadi.

Ichki ishlar organlari profilaktik hisobda turuvchi shaxslar hamda probatsiya xizmati hisobida turgan mahkumlarning axloqan tuzalishi va ularning qayta huquqbazarlik sodir etishlarining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan profilaktika ishlar profilaktika inspektorining oylik ish rejalarini hamda meyoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosida olib boriladi.

Profilaktika inspektori huquqbazarlik sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan joylar, internet kafelar, tungi ko'ngil ochish (dam olish) joylarini hamda ma'muriy nazorat o'rnatilgan, profilaktik hisobda turgan, ov quroliga ega bo'lgan, huquqbazarlik sodir etishga moyil shaxslar yashaydigan turar-joylarni doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalarida ish yuritish – jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ma'muriy huquqbazarliklar, ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish, profilaktik hisob va ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi profilaktika ishlari, shuningdek tayanch punktlarida kitoblarni hamda hujjatlarni yuritish, majbuliy davolashga yuborish, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish kabi ishlarning qonun hujjatlarida belgilangan talablari asosida yuritilishiga oid faoliyat tushuniladi.

Profilaktika inspektorining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishslash faoliyati deganda – ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turgan shaxslarni axloqan tuzalishi va qayta huquqbazarlik sodir etishlarining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan profilaktika choratadbirlarini amalga oshirish faoliyati tushuniladi.

Profilaktika (katta) inspektori tomonidan «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 35-moddasi talablari asosida quyidagi shaxslarga nisbatan profilaktik hisob ishi yuritiladi:

1. Ilgari sudlanib, jinoiy jazoni o'tagan shaxslar, ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bundan mustasno, ya'ni:

Date: 5th November-2024

- sud tomonidan JKning 43-moddasida nazarda tutilgan jazo tayinlanib, jazoni to'liq yoki qisman o'tagan shaxslar;
- tayinlangan jazoni qo'llashdan ozod qiluvchi amnistiya akti e'lon qilinganligi uchun jazodan ozod qilib, ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar.
- 2. Sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslar, ya'ni:
 - sodir etgan jinoyat uchun jazo tayinlashni istisno etadigan amnistiya akti e'lon qilinganligi bois jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar;
 - jinoyat uchun ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalg qilish muddati o'tib ketganligi bois jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarilgan shaxslar;
 - Jinoyat kodeksining 71-moddasiga muvofiq, o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilingan shaxslar.
- 3. «Jinoyat ishini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga asosan tugatish yoki reabilitatsiya qilmaydigan asoslarga ko'ra qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror chiqarilgan shaxslar», ya'ni JPKning 84-moddasiga asosan jinoyat sodir etilishida aybdorligi to'g'risidagi masala hal qilinmay turib jinoyat ishi tugatilgan quyidagi shaxslar:
 - javobgarlikka tortish muddati o'tganligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;
 - e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lganligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;
 - aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi mavjudligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;
 - shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (*qarori*) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori mavjudligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;
 - ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmanligi uchun jinoyat ishi tugatilgan shaxslar (JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno);
 - o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli jinoyat ishi tugatilgan shaxslar;
 - ishni tergov qilish yoki sudda ko'rib chiqish paytiga kelib, qilmish ijtimoiy xavflik xususiyatini yo'qotgan yoxud vaziyat o'zgarishi oqibatida bu shaxs ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lmay qolgan deb e'tirof etilganligi sababli jinoyat ishi tugatilgan shaxslar.
- 4. Jinoyat ishi bo'yicha qamoq bilan bog'liq bo'lmanan ehtiyyot chorasi qo'llanilgan ayblanuvchilar, ya'ni:
 - munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat ehtiyyot chorasi qo'llanilgan shaxslar;
 - shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ehtiyyot chorasi qo'llanilgan shaxslar;

Date: 5thNovember-2024

- garov ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxslar;
- MJtKning 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165¹, 183, 184¹, 184², 184³, 187, 188, 188¹, 189, 189¹, 190, 191, 201, 202, 202¹, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslar.

- Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytgan shaxslar (xulq-atvori tuzalgaligi sababli ushbu ta'sir chorasini qo'llashni davom ettirishga ehtiyoj yo'q deb topilib, mazkur muassasalardan sud tomonidan belgilangan muddat o'tishidan oldin chiqarilgan shaxslar bundan mustasno).

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 35-moddasi talablari asosida shaxsni profilaktik hisobga qo'yish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- vakolatli organning yoki mansabdar shaxsning O'zbekiston Respublikasi MJtKning 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165¹, 183, 184¹, 184², 184³, 187, 188, 188¹, 189, 189¹, 190, 191, 201, 202, 202¹, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarori (agar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari yoki harbiy xizmatchilar tomonidan mazkur moddalarda ko'rsatilgan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda, ular profilaktik hisobga olinmaydi, xodimga nisbatan intizomiy chora ko'rish uchun uning ish joyiga hujjatni rasmiylashtirgan vakolatli organ yoki

mansabdar shaxs tomonidan xabarnoma yuboriladi);

- vakolatli organ yoki mansabdar shaxsning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi yoxud reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarori;

- o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'limgan ehtiyot chorasi tanlangan ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi tergovchining yoki prokurorning qarori;

• sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi;

- shaxsning jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

• bolalar masalalari bo'yicha Milliy komissiya qarori.

Profilaktika (katta) inspektori profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning yoshi, jinsi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma'lumoti va mutaxassisligi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatları kabi shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olishi lozim.

Bundan tashqari, profilaktik hisobga olingan shaxslarga nisbatan yakka tartibdagagi profilaktik chora-tadbirlarni manzilli (muayyan shaxsga nisbatan), har bir shaxsning ijtimoiy xavflilik holati, u sodir etgan huquqbuzarlik tasnifi, turini hisobga olingan holda samarali amalga oshirish uchun profilaktika (katta) inspektori o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududda yashaydigan bunday shaxslarni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning maxsus qismlarida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar ob'yektlaridan kelib chiqqan holda toifalarga ajratgan holda ularga nisbatan hisob profilaktika ishlarini, shuningdek ular bilan olib borilgan profilaktik ishlar natijalari bo'yicha hisobotlarni yuritadi.

Date: 5th November-2024

Profilaktika inspektori bundan tashqari quyidagilarni amalga oshiradi:

- profilaktik hisobga olingan shaxsni g’ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirmaslik haqida ogohlantiradi;
- profilaktik hisobga olingan shaxsni uning ish (o’qish) va yashash joyidan tekshiradi, uning xulq-atvori haqida ma’lumotlar oladi;
- yakka tartibdagi barcha chora-tadbirlarni («Huquqbazarliklar profilaktikasi to’g’risida»gi qonunning 5-moddasi «Huquqbazarliklar profilaktikasining asosiy prinsiplari»da) belgilangan ta’sir ko’rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish tamoyiliga qat’iy amal qilgan holda olib boradi;
- jazoni ijro etish muassasasidan bo’shatilgan shaxslarning oilasiga, shuningdek jamiyatga moslashishida ko’mak beradi;
- profilaktik hisobga olingan shaxsni o’qish yoki ishga joylashtirilishida, shuningdek vaqtincha yashash joyi bilan ta’milanishida, ijtimoiy hayotga moslashishi uchun moddiy ko’mak olishida yordam ko’rsatadi;
- profilaktik hisobdagi shaxslardan axloqan tuzalayotgan va o’zida ijtimoiy ijobiy xulq-atvorni shakllantira boshlaganlarini rag’batlantirish yoki aksincha g’ayriijtimoiy xulq-atvorini davom ettirgan shaxslarga nisbatan esa, qonunda belgilangan tartibda majburlash choralarini qo’llaydi.

Ilmiy o’rganishimiz natijasida ichki ishlar organlarining Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati tomonidan profilaktik hisob yuritish va ushbu faoliyatni takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

• Ichki ishlar organlarida profilaktik hisob yuritishda tahlil va monitoring ishlarini samaarli olib borish maqsadida profilaktik hisobga olishning avtomatlashirilgan axborot tizimi Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalar faoliyatini tezkor axborot bilan ta’minalashni yo’lga qo’yish. Avtomatlashirilgan tizimda profilaktik hisobga olingan shaxsning kelish sanasi agarda o’z vaqtida kelmasa avtomatlashirilgan tizim orqali kelmaganligini ko’rsatuvchi maxsus tizim bo’lishi, qolaversa profilaktik suhbat uchun kelgan fuqarolar imzo o’rniga kelganligini tasdiqlash uchun maxsus identifikatsion barmoq izidan foydalanish zarur.

- Quyidagi shaxslarni ham profilaktika hisobga olinishini belgilash;
- fohishalik bilan shug’ullanuvchi shaxslar;
- oila-turmush munosabatlari doirasida huquqbazarliklar sodir etuvchi shaxslar;
- giyohvandlar va surunkali ichkilikbozlar;
- voyaga yetmagan huquqbazarlar;
- farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi ota-onalar va ularning o’rnini bosuvchi shaxslar;
- o’ziga nisbatan sudning jazodan ozod qilish to’g’risidagi ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarni ham kelgusida profilaktik hisobga olinishi huquqbazarliklarning yanada kamayishiga xizmat qiladi.